

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 5/4 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

|                                                                                                                                                             |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING<br>HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI .....                | 10-16 |
| <i>Atamuratova Dilafroz</i><br>TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI .....                                                      | 17-22 |
| <i>Abdushukurova Iqbol</i><br>TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI .....                                                                              | 23-27 |
| <i>Redjapov Doniyor</i><br>JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA .....                                                    | 28-31 |
| <i>Sultanov Samandar</i><br>QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI<br>JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....                       | 32-35 |
| <i>Matyakubov G'ayrat</i><br>XORAZM VOHASIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR<br>RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR)..... | 36-39 |
| <i>Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o'g'li</i><br>MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA) .....                                        | 40-45 |
| <i>G'aniyev Mirjalol</i><br>QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIIY HAYOT .....                                                                                         | 46-51 |

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

|                                                                                                                                                    |       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Abdullaev Altinbek</i><br>KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH LOYIHASI<br>BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ..... | 52-66 |
| <i>Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira</i><br>INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI .....                                           | 67-71 |
| <i>Rustamova Sayyora</i><br>STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI .....                                                                  | 72-77 |
| <i>Буранова Лола, Арипова Азиза</i><br>РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ .....                                          | 78-87 |
| <i>Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich</i><br>KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYLLARINI<br>QO'LLASH AHAMIYATI .....                 | 88-94 |

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

|                                                                                                                               |        |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|
| <i>Saidov Hakim G'afurovich</i><br>TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA<br>TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA ..... | 95-98  |
| <i>Kadirova Ziyoda</i><br>ILMIY IJODNING IJTIMOIIY, MADANIY VA TARIXIY O'LCHAMLARI .....                                      | 99-104 |

|                                                                                                                                                                   |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Muzaffarov Navruzxon Baxronovich</i><br>SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA<br>OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI .....                     | 105-108 |
| <i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i><br>YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI<br>DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI .....    | 109-113 |
| <i>Karimova Lola Muzafarovna</i><br>IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI .....                                                         | 114-119 |
| <i>Jumayeva Shahlo Suyunovna</i><br>JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK<br>MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... | 120-125 |
| <i>Djurayev G'olib</i><br>JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA<br>ERKINLIK MASALASI .....                                                          | 126-130 |
| <i>Rajabov O'tkirjon</i><br>KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA<br>"TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI .....                                                | 131-134 |
| <i>Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi</i><br>GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI .....                                                                  | 135-139 |
| <i>Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza</i><br>MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI .....                                                          | 140-144 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                              |         |
| <i>Abduganiyeva Djamila Rustamovna</i><br>MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS .....                                                       | 145-151 |
| <i>Murtazayeva Xadicha</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI .....                                                          | 152-155 |
| <i>Несунбаева Саодатхан</i><br>ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ<br>И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА" .....                            | 156-160 |
| <i>Axmedjanova Farida, Toirova Shohida</i><br>XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI .....                                                          | 161-165 |
| <i>O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi</i><br>TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL<br>VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI .....                      | 166-170 |
| <b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>                                                                                                                                  |         |
| <i>Salaev Nodirbek</i><br>PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI .....                                                                            | 171-178 |
| <i>Турсунов Ойбек Батирович</i><br>МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА<br>ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....                                | 179-184 |
| <i>Xakimova Inobatxon</i><br>XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA<br>SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI .....                                             | 185-191 |

|                                                                                                                                                                                                                                  |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Мардонов Амиржон Шерзод угли</i><br>ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ<br>ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА .....                                                                    | 192-202 |
| <i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i><br>AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA<br>QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTIONAL MEKANIZMLARNI<br>TAKOMILLASHTIRISH .....                              | 203-207 |
| <i>Xolmo'minov Shavkat Jumaevich</i><br>EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM<br>TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                                   | 208-215 |
| <i>Khudayberganova Nigina To'liq qizi</i><br>THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS<br>IN INTERNATIONAL LAW .....                                                                                            | 216-221 |
| <i>Саидов Бобур Бахромжонович</i><br>МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ:<br>ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ<br>РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ... | 222-229 |
| <i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i><br>RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL<br>TAJIRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI .....                                                          | 230-236 |
| <i>Qilichova Kamola Luqmonxon qizi</i><br>DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH,<br>SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK<br>TARKIB BELGILARI .....                               | 237-248 |
| <i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i><br>BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI:<br>HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI .....                                                                                                         | 249-256 |
| <b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>                                                                                                                                                                                             |         |
| <i>Imomov Sirojiddin Ilxomovich</i><br>SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK<br>TA'MINOTINING AHAMIYATI .....                                                                                           | 257-263 |
| <i>Khayrova Madina Rasimovna</i><br>NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING<br>REKONSTRUKTIV TAHLILI .....                                                                                                            | 264-269 |
| <i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i><br>MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI .....                                                                                                                                        | 270-273 |
| <i>Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i><br>AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI .....                                                                                                                | 274-278 |
| <i>Shakirova Dildora Abdumalikovna</i><br>NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI<br>XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH .....                                                                                | 279-285 |
| <i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i><br>TABIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING<br>QO'LLANILISHI .....                                                                                                       | 286-290 |

*Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon*

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY ..... 291-294

**Received:** 05 May 2025  
**Accepted:** 15 May 2025  
**Published:** 30 May 2025

*Article / Original Paper*

## **THE CONCEPT OF A SPIRITUALLY PERFECT PERSON AND ITS ESSENCE**

**Khudoykulov Azamat Beshimovich**

associate professor of the Department of History and Social Sciences  
University of Economics and Pedagogy

**Beshimova Aziza Azamat kizi,**

master's student of the History Department  
University of Economics and Pedagogy

**Abstract.** This article presents reforms carried out on the basis of the national education system. Opinions and comments are presented on the achievements achieved as a result of reforms and issues of integration of the global educational space.

**Keywords:** Perfect human being, the meaning of human life, "small world", "beautiful with human decency", spirituality, science, personality, hereditary units (genes).

## **MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI**

**Xudoykulov Azamat Beshimovich**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

**Beshimova Aziza Azamat qizi,**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
tarix bo'limi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola barkamol avlodni tarbiyalashda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlar, ta'lim tizimi, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalarni uyg'un holda rivojlanishini amalga oshirish maqolaning ilmiy yangiligi; ularning uzviyligi, bir-biri bilan mutanosibligini ta'minlashni o'rganish maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyati hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Komil inson, inson hayotining mazmuni, "kichik olam", "Inson odobi bilan go'zal", ruhiyat, ma'naviyat, fan, shaxs, irsiy birliklari (gen).

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N22.1>

Ma'naviy barkamol va komil inson tushunchalarini to'liq anglashdan oldin, avvalo inson, shaxs va fuqaro tushunchalarining mazmun-mohiyatini tushunib olish zarur bo'ladi.

Inson — juda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot bo'lib, uning mohiyatini tushunish borasida turli nazariyalar va fikrlar ilgari surilgan. Sharq falsafasi tarixida esa inson masalasi doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Masalan, Forobiy o'z falsafasida insonni butun borliq taraqqiyotining natijasi sifatida tushuntiradi. U insonning yuksak fazilatları aynan ilm orqali shakllanishini, hayotning mazmuni esa baxtli yashash va boshqalarni ham baxtli etishga intilishdan iboratligini ta'kidlaydi. Bu maqsadga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatadi. Beruniy va Ibn Sino

insonning boshqa mavjudotlardan ustunligini uning aql-zakovati va tafakkuri orqali asoslashga harakat qilganlar. Abu Homid G‘azzoliy esa bu ustunlik insonning qalbida mujassam ekanini ta’kidlagan. Ulug‘ mutasavvuf Abduxoliq G‘ijduvoni esa insonni “kichik olam” deb atagan.

Hayot go‘zaldir, — deydilar shoir va mutafakkirlar, lekin hayot inson bilan go‘zaldir. Inson go‘zalligini belgilovchi asosiy mezon uning ma’naviyligi, ya’ni axloq va odobi hisoblanadi. O‘zbek xalqining “Inson odobi bilan go‘zal” degan maqolining mohiyatida chuqur falsafiy ma’no yotadi.

Konfutsiy insonni o‘z mohiyatini ma’naviy-axloqiy fazilatlari va kamoloti orqali ifodalovchi mavjudot sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, insonning insonligi tabiiy ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari va instinktlarini ma’naviyatga bo‘ysundira olishidadir. Ma’naviy mas’uliyat esa faqat insonlarga nima qilish va nima qilmaslik kerakligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, insonning ma’naviyati uning faoliyatiga maqsad, yo‘nalish va mazmun beradigan asosiy omil hisoblanadi.

Bugungi kunda faylasuflar insonni uchta buyuk qudrat – tana, ruhiyat va ma’naviyatning uyg‘unlashgan yig‘indisi sifatida tasvirlamoqdalar. Insonning biologik jihatlarini o‘z ichiga olish, himoya qilish, avlod qoldirish, sharoitga moslashish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga olsa, uning ijtimoiy jihatlarini til, muomala, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilish, boshqarish, o‘zini o‘zi boshqarish, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar bilan ishlash kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Psixik jihatlarini esa ruhiy holatlar, hayrat, g‘am-tashvish, iztirob, zavq olish, kayfiyat va shunga o‘xshash kechinmalardan iboratdir.

Inson o‘z hayoti davomida tana va ruhning ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish hayotning asosiy va muhim sharti bo‘lsa-da, hayotning mazmuni faqat moddiy ne‘matlardan bahramand bo‘lish, qorin to‘ydirish, zavqlanish yoki boylikka intilish bilan cheklanmaydi. Inson ruhi ham o‘ziga xos oziqqa muhtojdir. Bu ehtiyoj insonda ma’rifatparvarlik, odamiylik, adolat, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, oliy maqsadlar sari intilish va vatanparvarlik kabi ma’naviy fazilatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Ma’lumki, tarbiya - inson shaxsi, ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta’lim esa axloqli, odobli shaxsga hunar o‘rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiya va ta’lim bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayondir. Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday yozadi: «Dars (ya’ni ta’lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabi. Chunki dars oluvchi - tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir»[6; 15-16-b.].

Inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Umuman aytganda, tarbiya ta’lim berish jarayonining barcha ma’rifiy majmuasini ham vazifasini ham o‘z ichiga oladi. Har qanday ta’lim, tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina yetuk ma’naviyatga zamin bo‘ladi.

Yuksak ma’naviyat insonni ruhiy jihatdan tozalaydi va uning iymon-e’tiqodini mustahkamlaydi. Faqat yuksak ma’naviyat inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolatni ta’minlab, saxiylik va oliyhimmatlikka erishishga yo‘naltiradi. Yuksak ma’naviyatda insonning haqiqiy mohiyati aks etadi.

Shaxs — alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy, ma’naviy mohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan individ. Kishilar shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo‘lib shakllanadi va rivojlanadi.

Inson ta’lim-tarbiya, mehnat, o‘zaro muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy-ma’naviy me’yorlar, siyosiy qarashlar ta’siri ostida faoliyat yuritadi,

ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda asta-sekin ijtimoiylashib boradi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda irsiy bo'lmagan yangicha fazilatlar paydo bo'ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak shakli va oliy darajasidir. U o'zida insonning mohiyatini va uning mavjudot sifatidagi qadriyatlarini aks ettiradi.

Insonning olijanob fazilatlarini yetuk shaxslar obrazida o'z ifodasini topadi. Insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxsning faoliyatida, jamiytdagi o'rnida, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda hamda belgilangan g'oyalarni amalga oshirishda aniq ko'rinadi.

Kishi o'zining ma'naviyati ustida ishlashi yoki boshqalarda chiroyli fazilatlarni shakllantirishi uchun, eng avvalo tarbiyaviy ta'sir ko'rsatayotgan insonning asl mohiyati bilan tanish bo'lishi lozim.

Inson bioijtimoiy maxluqotdir. Boshqacha qilib aytganda, u ham biologik, shu bilan bir qatorda ham ijtimoiy mohiyatga ega.

Uning biologik mohiyatiga, uni boshqa jonzorlardan biologik tur sifatida ajratib turuvchi tik yurishi, tanasining o'lchamlari, bosh, oyoq va qo'llarining shakl-shamoyili, fikrlay olish qobiliyati, nerv sistemasining tuzilishi, qonining issiqlik darajasi va kimyoviy tarkibi hamda boshqa bir qator biologik ko'rsatkichlari kiradi.

Kishining ijtimoiy mohiyati deganda, ajdodlardan unga meros bo'lib o'tgan irsiy birliklari (gen)dagi axborotlar bilan uning shaxsiy hayoti davomida orttirgan bilimi, ko'nikma, malaka va ma'naviyatining murakkab majmui tushuniladi. Qur'oni karimning Baqara surasida insonning boshqa maxluqotlardan ajratib turuvchi sifatleri to'g'risida quyidagi oyatlar mavjud (31-33-oyatlar): "Va U zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalarga ro'baro' qilib dedi: "Agar xalifalikka biz haqdormiz degan so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismlarini menga bildiring!"

Ular aytdilar: «Ey pok Parvardigor, biz faqat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz, Albatta, Sen o'zing ilm-u hikmat sohibisan". (Alloh): Ey Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir", dedi". Bu oyatlardan odamzod boshqa maxluqotlardan o'zining bilimi bilan ajralib turishi, shuning uchun ham, u Tangrining Yerdagi eng ardoqli yaratig'i ekani yaqqol sezilib turibdi.

Kishining qanchalik bilimi ko'p va turli-tuman bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boyib, shaxs sifatida har tomonlama yuksalib boradi. Buning uchun u, izlanishda, tinmay bilim olish jarayonida bo'lishi kerak. Bu esa undan, dunyoning mayda ne'matlari hisoblangan va juda ko'p vaqt hamda mablag' talab qiladigan yaxshi yeb-ichish, shohona hayot kechirish, o'yin-kulgi va to'y-tomoshalarga bo'lgan moyilliklarini amalga oshirishni iqtisodiy ta'minlanganligidan kelib chiqishlikni talab qiladi. U turli bilimlarni egallab, o'zining takomili ustida tinmay ishlar ekan, pirovard natijada najot topib, buyuk ne'mat hisoblangan barkamollikka erishadi. Shunda u Xudoga yaqin bo'lib, uning nafaqat bu dunyosi, balki, u dunyosi ham obod bo'ladi. Zero, barcha bilimlar manbai Tangri taolodir. "Olim odamlar Allohga yaqin kishilardir" degan hadisning purhikmat ma'nosi ham fikrimizning qanchalar haqiqat ekanligidan dalolat beradi. Muhammad payg'ambarimiz(s.a.v.) hadislarida "Mo'min va mo'minalar, beshikdan to qabrgacha bilim egallashlari shart" va "Boy bo'lay desang tijorat qil, faqat u dunyoni o'ylasang ibodat qil, u dunyo-yu bu dunyoning obod bo'lsin desang bilim egalla", deyilgan.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida tub sifat o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq ekani inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat. Bu ishlarni ro'yobga chiqarish uchun, fuqarolarimiz, o'zlarining oldilariga barkamol shaxs bo'lishlikni astoydil maqsad qilib qo'yishlari, aqliy faolliklarini oshirishlari, bilim darajalarini ko'tarishlari va barkamollikka xalal berayotgan barcha odatlardan voz kechishlari lozim bo'ladi. Ilm sohiblari – olimlar esa, keng aholiga ma'naviy o'zligini anglash, kishi ma'naviyatini tarkib topish tartiblari va ma'naviy takomillashuv bosqichlarini tushuntirib berishlari lozim. Bu masala shu kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan.

Qur'oni karim "Baqara" surasining 188-oyatida "Mol-dunyolaringizni oralaringizda nohaq-harom yo'llar bilan yemangiz! Va (gunoh qilayotganingizni) bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini harom yo'l bilan yeyish uchun (mol va pullaringizni pora qilib) hokimlarga uzatmang!" deya ogohlantirilgan.

Qur'onning boshqa suralarida ham razil ishlar qilmaslikka undovchi ko'pdan-ko'p oyatlar mavjud. Fikr yurituvchi odamlar uchun bu oyatlarda ko'p hikmatlar bor.

Jamiyat va shaxs rivoji uchun faqat foydali bilim, ya'ni (hikmat)lar kerak. Foydali bilimlarni egallashdan maqsad, avvalo o'ziga, so'ng yaqin kishilariga va butun jamiyatga naf keltirishdir. Kishi muayyan foydali bilimlarni egallab, o'z hayotida ko'p marotaba qo'llashi natijasida ular sekin-asta vujudiga, keyin esa, ruhiga singib hayot tarziga, ya'ni axloq va odobiga, boshqacha qilib aytganda, ma'naviyatiga aylanib ketishini yuqorida ko'rdik.

Barkamol shaxs deganda, turli-tuman bilimlarni egallagan, bir qator go'zal fazilatlarini vujudida jo etgan, zamona talabiga javob beruvchi ma'naviy yuksak inson siymosi tushuniladi. Barkamol shaxsga misol keltiradigan bo'lsak, ularga xalq ichida yuqori obro'ga ega bo'lgan o'qimishli odamlarni, xalqqa nafi tegib, ular uchun sevimli bo'lib qolgan rahbarlarni, butun umr mehnat qilib, shu kunda shariat talablarini to'liq bajarib yurgan nuroniy otaxonlarni tushunish mumkin.

Ma'lumki, "komil inson" tushunchasi Tangri taoloning odamni yaratishdan ko'zlagan maqsadiga to'liq javob bera oladigan hamda odamlar doimo orzu qilib kelayotgan ideal shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bularga, Payg'ambarlarni va birinchi navbatda Muhammad (s.a.v.)ni Payg'ambarlarimiz, valiy hamda aziz avliyolarni va shularga yaqinlashib qolgan shaxslarni misol qilib olish mumkin.

Muhtaram Prezidentimizning yoshlar o'qisin, bizdan ko'proq olimlar chiqsin, O'zbekistonni dunyoga tanitsin, shon-shuhratini oshirsin degan da'vatiga javoban, farzandlarimizning bilim olishi uchun yaratib berilgan shart-sharoitlarga qaramay, bizdan hadsiz ko'p zo'r olimlar chiqishi mumkin bo'lgan bir sharoitda, yoshlarimizning ko'pchiligi jamiyatning, ya'ni "Yuqori Men"ning etagidan tutib, uning an'ana va udumlarini bajarish bilan ovora bo'lib qolmoqdalar. Zigmund Freyd aytganidek, bu jamiyatning, ya'ni "Yuqori Men"ning shaxs rivojiga ko'rsatgan salbiy ta'siridir. Yakka shaxslar rivojlanmasa, shubhasizki, butun jamiyat ham rivoj topmaydi. Zero jamiyat, alohida olingan shaxslar majmuidan tarkib topgan bo'ladi.

Ushbu maqolada bildirmoqchi bo'lgan fikrlarni umumiy maxrajga keltirib, xulosalaydigan bo'lsak, inson degan mavjudot o'ta murakkab bo'lib, ham biologik, ham ijtimoiy mohiyatlarga ega ekanligini bildik. Shuning uchun uning ilmiy atamasi "bioijtimoiy mavjudot". Kishi dastlab individ bo'lib, u shaxs bo'lishga nomzod bo'lib tug'iladi xolos. So'ng, o'ziga berilgan tarbiyaga qarab, turli shaxs maqomiga ega bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, kishi shaxs bo'lib

shakllanishida, unga uch turdagi tabiiy quvvatlar, aql kuchi va hamfikrlar kuchi ta'sir ko'rsatar ekan. Tabiiy quvvat tanada o'z-o'zidan shakllansa, aql kuchi ta'lim-tarbiya orqali berilgan bilim natijasida paydo bo'ladi, do'stlar va hamfikrlarning birlashgan quvvati esa, ularning muayyan kishiga bo'lgan mehr-muhabbati natijasida shu odamda jamlanadi.

Eslaydigan bo'lsak, biologik rivojlanishni ta'minlovchi quvvatlarga – ozuqaga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun vujudda ishlab chiqiladigan quvvat, tashqi muhit va boshqa turdagi xavf-xatardan muhofazalanish uchun tanada ishlab chiqiladigan quvvat va nasl qoldirish uchun insonda ishlab chiqiladigan quvvat. Aqliy quvvatni oshiruvchi tarbiya omillariga – oila tarbiyasi, mahalla-ko'y, rasmiy ta'lim tizimi orqali beriladigan tarbiya, o'zini-o'zi tarbiyalash, ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan tarbiya va jamoat tashkilotlari orqali beriladigan tarbiya degan bo'laklar kiradi. Shulardan oila, mahalla-ko'y va o'zini-o'zi tarbiyalash erkin xarakterga ega bo'lsa, rasmiy ta'lim-tarbiya, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari orqali ko'rsatiladigan tarbiya ma'lum bir reja asosida amalga oshirilib, majburiy xarakterga ega. Davlat boshqaruv organlarining va ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi barcha turdagi mutasaddi kishilarining, shu kundagi asosiy vazifasi, erkin xarakterdagi tarbiya bilan majburiy xarakterdagi tarbiya orasidagi tafovutni yo'qotmoq, ya'ni, ularni baravarlashtirmoqdir. Bu degani, erkin xarakterdagi tarbiyani ham rejaga solib, uni davlat va jamiyat nazoratiga olish, majburiy tarbiyaga esa erkinlik (demokratik) elementlarini singdirish kerak, Shundagina tarbiya ta'sirining umumiy kuchi oshib, jamiyatimiz o'zini oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi oson bo'ladi. Vujudagi uch turdagi quvvatlarni bir tekis rivojlantirish va ularni kerakli yo'nalishda sarflash, faqat odamning pok niyatiga, oldiga qo'ygan maqsadiga, g'ayrat-shijoatiga, jasurligiga va shu yo'nalishda tinmay mehnat qilishligiga bog'liq. O'z ezgu maqsadi yo'lida tinmay aqliy va jismoniy mehnat qilgan odam, albatta, ko'zlagan niyatiga yetadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2012. I bob.
2. Erkayev A. Ma'naviyat - millat nishoni. T., 1997.
3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. T.: Yozuvchi, 2001.38-bet.
4. Yusupov E., Yusupov O'. Oila – ma'naviyat bulog'i. Toshkent, 2003.
5. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning ahamiyati, tajribalari va muammolari. "Postda" gazetasi, 16 fevaral, 2013 yil.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent,"O'zbekiston", 1992 yil, 15-16-bet.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5/4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).